



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA
INNOVATSION G‘OYALAR**



**QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH
CHORA-TADBIRLARINI EKOLOGIK-IQTISODIY ASOSLASHNING NAZARIY
SHARTLARI**

Kudiyarov Aybek Alisherovich

*Qoraqalpoq davlat universiteti,
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti,
Kudiyarov.aybek@gmail.com
+998937755790*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda organik qishloq xo‘jaliga o’tish va bunda qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning ekologik va iqtisodiy asoslashning nazariy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Organik qishloq xo‘jaligining yerlarning unumdorligiga ta’siriga doir tadqiqotlar o‘rganilgan. Tahlil natijasida tegishli xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *organik qishloq xo‘jaligi, yer tuzish ishlari, iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik.*

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются теоретические аспекты экологического и экономического обоснования перехода к органическому сельскому хозяйству и мер по повышению плодородия сельскохозяйственных земель. Изучено влияние органического сельского хозяйства на плодородие земель. В результате анализа были сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: *органическое сельское хозяйство, землеустройство, экономическая эффективность, экологическая безопасность.*

Abstract: *This study examines the theoretical aspects of ecological and economic justification for the transition to organic agriculture and measures to increase agricultural land fertility. Research has been conducted on the impact of organic agriculture on land fertility. Based on the analysis, relevant conclusions were drawn.*

Keywords: *organic agriculture, land management, economic efficiency, environmental safety.*

Har qanday qishloq xo‘jaligi faoliyatining asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi natijalaridan foyda olish bo‘lib, uning natijalari qishloq xo‘jaligi yerlari tuprog‘ining holatiga bog‘liq bo‘lgan olingan mahsulot hisoblanadi.

Tuproq unumdorligini oshirish turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi, masalan: o‘g‘itlar berish, tuproqqa ishlov berishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, melioratsiya ishlarini o‘tkazish, ekin va ekinni ekish muddatlariga rioya qilish, o‘simlik va tuproqqa to‘g‘ri parvarish qilish, ekin almashinuviga rioya qilish, ob-havo prognozlarini tuzish va boshqalar.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Biroq, organik qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanishni barqaror rivojlantirish uchun iqtisodiy jihatdan asoslangan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: organik va mineral o‘g‘itlarni qo‘llashni hisobga olish va ilmiy asoslangan dozalash; qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni melioratsiyalash va rekultivatsiyalash ishlarini olib borish; qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etish uchun xo‘jalik ichida yer tuzish ishlarini olib borish; yerlar degradatsiyasining oldini olish, tuproq ifloslanishini, ekologik holatini yaxshilash, muomalaga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Ta’kidlash joizki, yerdan uzlusiz foydalanish yerlarning ekologik holatini saqlash va tiklashga, ulardan maqsadli foydalanishga - ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga, hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan. Shu bilan birga yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish jarayonida maxsus almashlab ekishlar nazarda tutiladi, o‘simplik navlarini tanlash va boshqalar amalga oshiriladi, ular zararkunandalardan, kasalliklardan va boshqalardan himoya qilishni rejalashtirishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtida foydalanimayotgan qishloq xo‘jaligi yerlari maydonlarining ko‘payishi davom etmoqda va, eng avvalo, bu toifaga ekinzorlar, dala yerlari kirmoqda, biroq bunda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni jadallashtirish hisobiga ularga antropogen ta’sirning kuchayishi yuz bermoqda, bu yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etish uchun ekoliya, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi yerlarining bioiqlimiyligi salohiyati talablariga javob beradigan organik mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi talablariga javob beradigan yer tuzish vositalarini qo‘llash masalalarini kechiktirmasdan hal etishni talab qiladigan muammo paydo bo‘lmoqda.

Lekin shuni aytib o‘tish kerakki, organik qishloq xo‘jaligini yuritish tabiiy muhitda ekologik munosabatda ijobji o‘zgarishlarni beradi, buni organik ishlab chiqarish usuli 30 yildan ortiq vaqt davomida amalga oshirilib kelinayotgan xorijiy davlatlar tajribasi ham ko‘rsatmoqda, ya’ni organik ishlab chiqarish usuli atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi. Ushbu masalani o‘rganish bir nechta asosiy jihatlarni ajratish imkonini beradi:

1. Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish Organik qishloq xo‘jaligi zararli chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

2. Issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC) hisobotiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan chiqadigan chiqindilarining umumiy antropogen chiqindilar hajmidagi ulushi 10-12% ni tashkil etadi, bu yiliga 5,1-6,1 mlrd tonna CO₂ ga teng.

Agrar amaliyotga organik yondashuvni joriy etish bu ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib kelibgina qolmay, barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ham turtki beradi. Bunday xo‘jaliklarda sintetik o‘g‘itlar va pestitsidlardan emas, faqat tabiiy jarayonlar va materiallardan foydalaniladi, bu esa tuproq unumдорligi va biologik xilma-xillikni saqlab qolishning asosi hisoblanadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Organik dehqonchilikni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun organik dehqonchilikni rivojlantirish uchun tanlangan hududda quyidagi asosiy bosqichlarni hisobga olgan holda puxta tadqiqotlar o'tkazish zarur:

1. Hududning tuproq-iqlim sharoitlarini tahlil qilish, organik mahsulotlar yetishtirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish zarur.

2. Yer fondi tahlilini bajarish: foydalanilmayotgan qishloq xo'jaligi yerlarini organik dehqonchilik uchun xo'jalik aylanmasiga jalb etish masalalarini hal etish maqsadida o'rghanish.

3. Organik mahsulotlarni qayta ishlash markazlarini tashkil etishni qamrab olgan malakali mutaxassislar va zarur infratuzilma bilan qo'llab-quvvatlash bo'yicha hududiy imkoniyatlarni baholash.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini organik ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mahalliy darajada ma'muriy qo'llab-quvvatlashning mumkin bo'lgan darajasini ko'rib chiqish.

Bundan tashqari, rejalashtirishda organik qishloq xo'jaligining rivojlanishiga salbiy ta'sirlarni ham hisobga olish kerak, ular: sertifikatlashtirishga qo'yiladigan qat'iy talablar xarajatlarning oshishiga olib keladi; organik mahsulotlarni sotish imkoniyatlari va iste'molchilar talabini o'rghanish zarur; hozirgi vaqtida qo'l mehnatini qo'llashga tayanadigan organik ekinlarni yetishtirishning yangi texnologiyalarini qo'llashni ko'rib chiqish; biroq, organik mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori bo'lishi va sertifikatlashtirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarga qaramay, sotishning yuqori rentabelligi bu xarajatlarni qoplashi mumkin.

Bu omillarni puxta o'rghanish barcha xavf-xatar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, organik qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Yer tuzish loyihamalarini ishlab chiqish jarayonida ularni amalga oshirish bilan bog'liq asosiy xavf-xatarlarni aniqlash va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi:

1. Tuproq va suv havzalarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, yerlarning degradatsiyasi kabi ekologik xavf-xatarlar.

2. Iqtisodiy xavf-xatarlar, jumladan, yer tuzish texnologiyalarini noto'g'ri tanlash yoki resurslardan oqilona foydalanmaslik oqibatida hosildorlikning yo'qotilishi mumkinligi.

3. Yer resurslarini boshqarishning yangi usullarini joriy etish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mahalliy aholining mehnat va turmush sharoitlari o'zgarishi bilan bog'liq ijtimoiy xavf-xatarlar.

Bunda iqtisodiy samaradorlikni ham, ekologik xavfsizlikni ham hisobga oladigan kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bunda turli sohalar: agronomiya, ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar sohasiga oid masalalarni hisobga olish talab etiladi.

Muallif tomonidan yer resurslari va tabiatdan foydalanishni boshqarish sohasidagi davlat siyosatining asosiy vazifalari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular ichida asosiyalar quyidagilar hisoblanadi: yetishtiriladigan yerdardan, sug'orilmaydigan yerdardan ularni





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



organik dehqonchilikda qo'llash uchun foydalanish; organik mahsulot ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini va sug'orilmaydigan yerlarni organik dehqonchilik uchun muomalaga kiritish bo'yicha sa'y-harakatlarni ishlab chiqish; organik mahsulotlarning ichki iste'mol bozorini rivojlantirish; organik mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni realizatsiya qilish bozorlarining logistik aloqalarini rivojlantirish.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish va ularning barqaror ekologik muvozanatini saqlash sharoitida organik qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirish maqsadiga erishish uchun yer tuzish harakatlari kompleksi: yerlarning holatini baholash, ulardan foydalanish, antropogen yuk darajasi bo'yicha zonalarga ajratish hamda qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni yer tuzish loyihalarini amalga oshirish zarur.

Foydalaniman adabiyotlar

5. Аварский Н.Д., Таран В.В., Алпатов А.В. Проблемы развития рынка продукции органического сельского хозяйства и его инфраструктурного обеспечения в России // Экономика, труд, управление в сельском хозяйстве. 2022.
6. Вершинин В. Совершенствование механизмов вовлечения в сельскохозяйственный оборот неиспользуемых земель сельскохозяйственного назначения [Текст] / В. Вершинин, В. Петров // Международный сельскохозяйственный журнал. - 2015. - № 5.
7. Штайнер Р. Духовно-научные основы успешного развития сельского хозяйства, Сельскохозяйственный курс, 1924, издание: Калуга «Духовное познание» 1997
8. Clapp J., Fuchs D. (Eds.). Corporate Power in Global Agrifood Governance. Cambridge, 2009

